Дарснинг технологик харитасини қай кўринишда ёки шаклда тузиш, бу ўқитувчининг тажрибаси, қўйган мақсади ва ихтиёрига боғлиқ. Технологик харита қандай тузилган бўлмасин, унда дарс жараёни яхлит ҳолда акс этган бўлиши ҳамда аниқ белгиланган мақсад, вазифа ва кафолатланган натижа, дарс жараёнини ташкил этишнинг технологияси тўлиқ ўз ифодасини топган бўлиши керак. Технологик харитани тузилиши ўқитувчини дарсни

кенгайтирилган конспектини ёзишдан халос этади, чунки бундай харитада дарс жараёнининг барча кирралари ўз аксини топади.

Ўқитувчи томонидан ўзи ўқитилаётган фаннинг ҳар бир мавзуси, ҳар бир дарс машғулоти бўйича тузилган юқоридаги каби технологик харита унга фани, предметини яхлит ҳолда тасаввур этиб ёндашишга, тушунишига (бир семестр, бир ўқув йили бўйича), яхлит ўқув жараёнининг бошланиши, мақсадидан тортиб, эришиладиган натижасига кўра олишига ёрдам беради. Айниқса, технологик харитани ўқувчи – талабанинг имконияти эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда тузилиши, уни шахс сифатида таълимнинг марказига олиб чиқишга олиб келади. Бу эса ўқитишнинг самарадорлигини оширишга имкон яратади.

Таълим жараёнига янги педагогик технологияларни татбиқ этиш борасида олий таълим тизимида ҳам изланишларнинг ташкил этилаётганлиги алоҳида эътиборга моликдир.

Бизнинг фикримизча, педагогик технологиянинг энг асосий негизи – бу ўқитувчи ва ўқувчи – талабанинг белгиланган мақсаддан кафолатланган натижага ҳамкорликда эришишлари учун танлаган технологияларига боғлиқ деб ҳисоблаймиз, яъни ўқитиш жараёнида, мақсад бўйича кафолатланган натижага эришишда қўлланиладиган ҳар бир таълим технологияси ўқитувчи ва ўқувчи ўртасида ҳамкорлик фаолиятини ташкил эта олса, ҳар иккаласи ижобий натижага эриша олса, ўқув жараёнида ўқувчи – талабалар мустақил фикрлай олсалар, ижодий ишлай олсалар, излансалар, таҳлил эта олсалар, ўзлари ҳулоса қила олсалар, ўзларига, гуруҳга, гуруҳ эса уларга баҳо Бера олса, ўқитувчи эса уларнинг бундай фаолиятлари учун имконият ва шароит ярата олса, бизнинг фикримизча, ана шу, ўқитиш жараёнининг асоси ҳисобланади. Ҳар бир дарс, мавзу, ўқув предметининг ўзига ҳос технологияси бор, яъни ўқув жараёнидаги педагогик технология – бу яқка тартибдаги жараён бўлиб, у ўқувчи – талабанинг эҳтиёжидан келиб чиққан ҳолда бир мақсадга йўналтирилган, олдиндан лойиҳалаштирилган ва кафолатланган натижа беришига қаратилган педагогик жараёндир.

Биз битирув ишимизда Синквейн, Кластер, Инсерт, Венн диаграммаси, Бумеранг каби интерфаол усуллардан фойдаланишни афзал кўрдик.

Шундай қилиб, юқорида кўрсатилган интерфаол усуллардан фойдаланиш талабаларни мустқил фикрлашга ўргатади, мустақил ишлашга ўргатади, танқидий тафаккурини ривожлантиради ва мавзуни самарали ўзлаштиришга ёрдам беради.

Мақсадни амалга ошириш ва кафолатланган натижага эришиш, ҳам ўқитувчи, ҳам ўқувчининг ҳамкорликдаги фаолияти ҳамда улар қўйган мақсад, танлаган мазмун, метод, шакл, воситага, яъни технологияга боғлиқ.

Шунинг учун ҳар бир ўқитиладиган мавзу бўйича технологик харита тузиш мақсадга мувофиқдир.

Технологик харитада машғулотнинг мақсади, вазифалари, ўқув жараёнининг мазмуни, ўқув жараёнини амалга ошириш технологияси ва кутилидиган натижалар ўз аксини топади.

“Био ва иншоотларнинг ер остки қисмини қайта қуриш ва таъмирлаш” мавзусини модели ҳамда ўқитишда технологик харита яратиш ва интерфаол усуллардан фойдаланиш йўллари

Қуйида биз, “Био ва иншоотларнинг ер остки қисмини қайта қуриш ва таъмирлаш” мавзуси бўйича ўтказиладиган дарснинг модели ҳамда олдиндан лойиҳалаштирилган технологик харитасини ишлаб чиқдик.

МАВЗУ	Био ва иншоотларнинг ер остки қисмини қайта қуриш ва таъмирлаш
1.1. Маърузани олиб бориш технологияси	
- 2 соат	Талабалар сони:
от шакли	Ахборотли маъруза
аси	1. Био ва иншоотларни пойдеворларини қайта таъмирлаш ишларини бажаришнинг хусусиятлари 2. Алоҳида турдаги ишларни бажариш 3. Сайёз жойлашган пойдеворларни мустаҳкамлаш 4. Қозикли пойдеворларни мустаҳкамлаш

	5. Пойдевор асосини мустаҳкамлаш
Ўқув машғулотининг мақсади: талабаларни ва иншоотларни пойдеворларини қайта таъмирлаш ишларини бажаришнинг хусусиятлари; алоҳида турдаги ишларни бажариш; сайёз жойлашган пойдеворларни мустаҳкамлаш; қозикли пойдеворларни мустаҳкамлаш; пойдевор асосини мустаҳкамлаш; бино ва иншоотларнинг пойдеворларини мустаҳкамлаш учун уларни вақтинчалик таянчларга ўрнатиш усуллари билан таништириш	
Ўқувчилар:	Ўқув натижалари:
Бино ва иншоотларни пойдеворларини қайта таъмирлаш ишларини бажаришнинг хусусиятларини гапириб беради	Бино ва иншоотларни пойдеворларини қайта таъмирлаш ишларини бажаришнинг хусусиятларини изоҳлайди
Алоҳида турдаги ишларни бажариш тартиби билан таништиради	Алоҳида турдаги ишларни бажариш тартиби кетма-кетлигини билади
Сайёз жойлашган пойдеворларни мустаҳкамлаш чора-тадбирлари билан таништиради	Сайёз жойлашган пойдеворларни мустаҳкамлаш чора-тадбирларни амалиётда қўллайди
Қозикли пойдеворларни мустаҳкамлаш йўллари билан таништиради	Қозикли пойдеворларни мустаҳкамлаш йўллари ҳақида гапиради
Пойдевор асосини мустаҳкамлаш ҳақида маълумот беради	Пойдевор асосини мустаҳкамлаш ҳақида билади.
• Ўқитиш воситалари	• маъруза матни, компьютер слайдлари, доска
• Ўқитиш усуллари	ахборотли маъруза, синквейн, блиц-сўров,
• Ўқитиш шакллари	лаш
• Ўқитиш шароити	• техник воситалар билан таъминланган аудитория
• Мониторинг ва баҳолаш	• оғзаки савол-жавоб

**“Бино ва иншоотларнинг ер остки қисмини қайта қуриш ва таъмирлаш”
мавзусининг технологик харитаси**

Иш босқич- лари	Ўқитувчи фаолиятининг мазмуни	Тингловчи фаолиятининг мазмуни
-----------------------	-------------------------------	--------------------------------------

1-босқич Мавзуга кириш (20мин)	1.1.Талабаларни мавзунинг номланиши, мақсади ва кутиладиган натижалар билан таништиради. 1.2. “Био ва иншоотларнинг ер остки қисмини таъмирлаш” мавзусига “Асосланган эссе ёзинг (1-илова)	Тинглайдилар Эссе ёзади
2 -босқич Асосий қисм (40 мин)	2.1.Маъруза режаси билан таништиради (2-илова). 2.2.Бўйича таянч ибораларни ёзиб, мазмун ва моҳиятини тушунтиради (3-илова). 2.3.“Био ва иншоотларни пойдеворларини қайта таъмирлаш ишларини бажаришнинг хусусиятлари” мавзусини “Инсерт” усули ёрдамида тушунтиради (4-илова). 2.4.Алоҳида турдаги ишларни бажариш мавзусини тушунтиради (5-илова). 2.5.Сайёз жойлашган пойдеворларни мустаҳкамлаш йўллари билан таништиради (6-илова). 2.6.Қозикли пойдеворларни мустаҳкам-лаш ҳақида тушунча беради (7-илова) 2.7.Пойдевор асосини мустаҳкамлаш мавзусини “Б/БХ/Б” усули асосида тушунтиради (8-илова). 2.7.“Био ва иншоотларнинг ер остки қисмини қайта қуриш ва таъмирлаш” мавзуси бўйича билимларини мустаҳкамлаш мақсадида “Кластер” технологиясини бажаради (8-илова).	Режани ёзиб оладилар Тинглайди Инсерт жадвалига шартли белги қўяди Тинглайдилар ва асосий маълумотларни конспект дафтарларига ёзиб оладилар “Б/БХ/Б” жадвалини тўлдиради Кластер график организерини тузади
3-босқич Яқунловчи (20 мин)	3.1.Мавзу бўйича билимларни мустаҳкамлаш учун блиц-сўров ўтказади (9-илова). 3.2.Мустақил тайёрланиш учун амалий машғулот мавзуси ва топшириқларини беради (10-илова). 3.3. Курс бўйича адабиётлар рўйхати билан таништиради (11-илова)	Саволларга жавоб берадилар Мавзу ва топшириқларни ёзиб оладилар Адабиётлар рўйхатини ёзиб оладилар

1-илова

4- гуруҳ учун топшириқ

“Био ва иншоотлар томларини таъмирлаш ва улардан фойдаланиш” мавзусига оид “Асосланган эссе” тузинг.

Асосланган эссе ёзиш қоидалари

Асосланган эссе – қўйилган саволга асосли келтирилган ёзма ишдир. Талаба маълум бир позицияни эгаллайди ва уни ҳимоя қилади, бунда ўзининг позициясини қўллаб-қувватлаш учун бир қанча асосланган исботларни келтиради. Мақсад – талаба лозим топадиган қарашларни бошқаларнинг ҳам қабул қилишига ишонтириш.

☞ *Асосланган самарали эссени ёзиш енгил бўлади, қачонки сиз китобхонларга ўзингизнинг эссеингизни ёзиш жараёнида уни фикрий жиҳатдан тақдим этсангиз ва улар билан фикрий мулоқотни ўрната олсангиз.*

☞ **Асосланган эссени баҳолаш кўрсаткичлари ва мезонлари**

- Мавзу мазмунига мос келиши;
- мазмуни, фикри;
- унга таалукли муаммони олдиндан кўра билиш, шахсий нуқтаи назари, маълумотлар етарлилиги;
- услуб: ифода аниқлиги, муайянлиги;
- орфография

2-илова

Мавзу режаси

1. Бино ва иншоотларни пойдеворларини қайта таъмирлаш ишларини бажаришнинг хусусиятлари.
2. Алоҳида турдаги ишларни бажариш.
3. Сайёз жойлашган пойдеворларни мустаҳкамлаш.
4. Қозиқли пойдеворларни мустаҳкамлаш.
5. Пойдевор асосини мустаҳкамлаш.

3-илова

Таянч иборалар

Бино, иншоот, пойдевор, қозикли пойдевор, қайта қуриш, саёз жойлашган пойдевор, ИБЛ, ҚМҚ, тебраниш амплитудаси, ғилоф, қолип ўрнатиш.

4-илова

“Бино ва иншоотларни пойдеворларини қайта таъмирлаш ишларини бажаришнинг хусусиятлари” мавзусини “Инсерт” усули ёрдамида тушунтиради

“Бино ва иншоотларни пойдеворларини қайта таъмирлаш ишларини бажаришнинг хусусиятлари”	Шартли белги
Бино ва иншоотларни ер остки қисми ва уларни ичкараси ёки ташқарисидан ўтадиган муҳандислик коммуникацияси ишларида пойдевор конструкцияларини мустаҳкамлаш ва қайта таъмирлаш ишлари катта меҳнат ва куч талаб қилади. Бино ва иншоотларни таъмирлашнинг мураккаблик томони шундаки, унда умумий ечими йўқлигидадир, бунда мустаҳкамланадиган конструкция ва қурилиш шароитининг ҳолатига боғлиқ бўлади. Шунинг учун лойиҳалаш ишлари ечимини топишда таъмирлашни аниқ ҳолатлар бўйича қурувчининг тўплаган тажрибасига асосланиб ишлаб чиқилади.	+
Бино ва иншоотларнинг ер остки қисмини қайта таъмирлашда ишларни бажаришда жуда мураккаб ва оғир шароитда ишлар олиб борилади, шунинг учун қўшимча меҳнат ва маблағларнинг сарф бўлишига сабаб бўлади, бунда ашё ва конструкцияларнинг ташиш, қўшимча меҳнат хавфсизлигини кучайтириш билан боғлиқ бўлган харажатлар кўзда тутилади. Танланган технологик ташкилий ишлар ечими ишларни бажараётган корхонанинг шароитига қараб иложи борица максимал даражада ишларни тез ва аниқ бажарилишига ёрдам бериши керак.	V
	?
	-
	+
	?
	+

5-илова

Алоҳида турдаги ишларни бажариш мавзусини тушунтиради

Пойдеворларни мустаҳкамлаш ва таъмирлаш ишлари ески конструкцияларни бузиш ва алмаштириш билан боғлиқлиги сабабли иш ҳажмини ортиши ва бажариш вақтини ортишига олиб келади.

Ески конструкцияларни бузиш ва алмаштириш усулини танлашда конструкциянинг материалига, ҳажми ва ўлчамига, бинонинг конструктив ҳолатига, маҳаллий шароитига, механизмлар сонига ва бошқа ҳолатларга қаралади.

Яхлит бетон пойдеворларини бетон парчалаш ускунаси ёрдамида бузиш мумкин. Катта массивли яхлит темирбетон пойдеворларини бузиш учун парчаланиш ёки бўлакларга бўлиш воситалари орқали амалга оширилади.

Парчаланиш воситаларига: пона ва зарбли-шар, парчаловчи болғалар, бетон парчаловчи, пневмо ва гидроболғалар, портловчи моддалар, портловчи генераторлар, порохли ускуналар, электрогидравлик ва гидропортловчи принцип асосида ишловчи қурилмалар киради.

Бўлакларга бўлиш воситасида конструкцияни арралаш, ажратиш ва кесиш ёрдамида керакли ўлчамлардаги элементларга бўлинади. Бундай механизмларга олмос дискли дастгоҳлар, тешувчи машиналар, қозиқ ўрнатувчи қурилмалар, электрли асбоблар ва бошқалар билан ҳаракатланувчи ускуналар киради. Пойдеворларни портловчи моддалардан фойдаланган ҳолда бузиш очиқ майдонларда ва бино ичида ҳам қўллаш мумкин.

Пойдеворларни портловчи моддалар билан бузиш технологиясини ишлаб чиқиш учун қуйидаги маълумотлар зарур бўлади: пойдевор конструкциясининг ўлчами ва ҳажми, бетон маркаси, арматуралаш ҳолати, массивда канал ва бўшлиқларни жойлашуви, хона режаси ва конструкцияларни жойлашуви, портлашдан ҳимоя қилиш керак бўлган ускуналар, портлашдан кейин пойдеворни бўлакларга бўлувчи механизм ҳақидаги маълумотлар керак бўлади.

Пойдеворларни шпурлаш усули бўйича бузишда бутун баландлик, шпур чуқурлиги 0,9 га тенг қилиб олинади (1.2-расм).

Пойдеворларни қатламма-қатламлигини бузиш шпурларининг чуқурлиги қатлам қалинлигига тенг бўлиши керак, бундай тартибга ишлар пойдевор асосида грунтнинг зарарланиши олдини олади.

Горизонтал шпурларни пойдеворда ўрнатганда асос билан орасида 0,2-0,5 м бўлган ҳимоя қатлами бўлиши керак. Шпурларнинг диаметри 35-40 мм бўлади.

Темир-бетон пойдеворларни бузиш учун Юткиннинг электрогидравлик усулидан фойдаланилади, бунда тўлқинли зарба ҳосил қилувчи электр зарядларни суюқликда портлашига асосланади. Пойдеворда диаметри 30-40 мм, чуқурлиги 400 мм бўлган шпурлар тешилади, уларга электродлар ўрнатилади, кейин шпурларга сув тўлдирилади ва ёғоч тикинлар билан ёпилади. Електрқучлантиргичдан 4-5 минут давомида электродларга қучланиш узатилгандан кейин массив икки бўлакка бўлинади. Массив бўлинганда унинг бўлаклари узоққа кетмайди ва уларни шу жойни ўзида тозалаш мумкин. Бетон пойдеворларни электрогидравлик усул билан бузишда “Вулкан К-32”; “Импульс-4”; “Базалт-1”; “Егурн” ва бошқа ускуналардан фойдаланилади.

6-илова

Сайёз жойлашган пойдеворларни мустаҳкамлаш йўллари билан таништиради

Саёз жойлашган пойдеворларни таъмирлаш усулини танлаш юкларни катталиги в характерига, майдоннинг инженер-геологик шароитига ва бинонинг конструкцияси турига боғлиқдир.

Саёз жойлашган пойдеворларни мустаҳкамлашни кўп тарқалган усулига қуйидагилар киради:

- пойдевор остига катталашган ва катталашмаган ғилофлар қўйиш;
- пойдевор остига плита, устун, девор ўрнатиш;

- ески пойдеворни олиб ўрнига янгисини қўйиш;
- қоқилувчи ва тўлдирувчи қозиклар билан пойдеворларни мустаҳкамлаш;

- “грунтдаги девор” усулида мустаҳкамлаш.

Умумий ҳолатда пойдеворларни таъмирлаш ва мустаҳкамлаш ишларини ғилоф ўрнатиш усулида, янги пойдевор ва конструкция ўрнатиш ишлари қуйидаги тартибда бажарилади:

- юк кўтарувчи конструкцияларга вақтинчалик таянчлар ўрнатилади;
- кучайтириладиган пойдевор атрофидаги грунт қазиб олинади;
- ҳандақ нишобликлари мустаҳкамланади;
- пойдевор юзаси тозаланади ва чақаланади;
- пойдевор асосидаги грунт чақир тошлар билан зичланади ва мустаҳкамланади;
- пойдеворга арматуралар ва қуйма темир қисмлари ўрнатилади;
- пойдеворга қолип ўрнатилади;
- конструкция бетонланади ва парвариш қилинади;
- пойдевор қолип ва ҳандақ нишобидаги ушлагичлар олинади;
- пойдевор ёнларига қайтадан грунт ётқизилади.

7-илова

Қозикли пойдеворларни мустаҳкамлаш ҳақида тушунча беради

Қозикли пойдеворларини мустаҳкамлашда қайси усулдан фойдаланиш қозик пойдеворининг қайси элементлари таъмир талаблигини, яъни ростверк, пойдевор қозик атрофидаги грунт мустаҳкамлигини билиш керак бўлади.

Ростверкларни мустаҳкамлаш усулини танлашда қозикқа етказилган зарар ва уни келиб чиқиш сабабларни ўрганиш зарур.

Ростверк бетоннинг сиртки қатламининг коррозияси олдини олиш ва кейинги хизмати учун семент қоришмасини босим остида конструкция


сиртига ўрнатилади. Конструкциянинг сиртига қоришма ўрнатишдан олдин уни сим чўтка ёки бошқа ускуналар билан яхшилаб тозалаш ва сув билан ювиш лозимдир. Торкетлашда ячейка ўлчами 5-10 см ва сим диаметри 5мм бўлган металл тўрлар билан бажариш мақсадга мувофиқдир.

8-илова

Пойдевор асосини мустаҳкамлаш мавзусини “Б/БХ/Б” усули асосида тушунтиради

Пойдевор асосини мустаҳкамлаш		
Биламан	Билишни хохлайман	Биламан
Бино ва иншоотларни пойдевор асосини мустаҳкамлигини ошириш заруратини биламан	Бино асосини мустаҳкамлашнинг замонавий усуллари	Таркибини аниқлашда қоришмадаги компонентларининг аралашуви ва бетоннинг мустаҳкамлиги билан ифодаланади

“Бино ва иншоотларнинг ер остки қисмини қайта қуриш ва таъмирлаш” мавзуси бўйича билимларини мустаҳкамлаш мақсадида “Кластер” технологиясини бажаради



**Мустақил тайёрланиш учун амалий машғулот мавзуси ва
топшириқлари**

1. “Бино ва иншоотларнинг ер остки қисмини қайта қуриш ва таъмирлаш” мавзусидаги семинарга тайёргарлик кўринг.
2. Интернетдан янги маълумотлар тўпланг, муҳокама этилаётган саволларга оид мустақил фикр юритинг.

Машғулотнинг услубий таъминоти:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонуни.
2. Каримов И.А. «Баркамол авлод – Ўзбекистон тараққиётининг пойдевори» Т., Ўзбекистон, 1997 йил.
3. Miraxmedov M., Bozorboev N., Bozorboev F. Bino va inshootlarni ta'mirlash va qayta qurish texnologiyasi 1-qism. O'quv qo'llanma. Toshkent, TAQI, 2005. - 95 bet.
4. Ходиев Б.Ю, Голиш Л.В. Мустақил ўқув фаолиятини ташкил этиш усул ва воситалари (биринчи босқич талабаларига ёрдам тариқасида): Ўқув-услубий қўлланма – Т.: ТДИУ, 2010. – 97 б.
5. Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологияларва педагогик маҳорат. Т., 2000. – 151б.
6. Фарберман Б. Илғор педагогик технологиялар. -Т.: Фан. 2000. -125 б.

ХУЛОСА

Ҳар қандай педагогик технология таълимнинг янги лойиҳасини ривожлантирувчи таълим тамойилларига асосланган бўлиб, ўқувчи шахсига йўналтирилмоғи керак. Илғор педагогик технологиянинг марказида эса таълим жараёнининг раҳбари ҳамда шу жараённинг субъекти-ю объекти бўлган ўқитувчи ва ўқувчи туради. Шундай экан, бу икки шахснинг ҳамкорлиги, ўзаро мулоқоти, бир-бирига кўрсатадиган таъсири энг замонавий талаблар асосида ташкил топиши лозим. Бунинг учун биринчи навбатда, ўқитувчи таълим-тарбия жараёни олдида қўйилган талаблар, таълимни ташкил этиш ва бошқариш принциплари ҳамда йўллари, ўқувчини ақлий ва жисмоний жиҳатдан ривожлантириш усуллари, у билан ҳамкорлик қилиш, уни ўқишга, ўрганишга йўналтириш, ўқувчи шахси фаолиятини тўғри ташкил этиш, улар билан мулоқотга киришиш, муаммо ва келишмовчиликларни бартараф этиш, синфда ижодий, ишчан муҳитни вужудга келтириш, ўқувчи фаолиятини аниқ ва тўғри баҳолаш методлари билан қуролланган бўлиши лозим.

Хулоса қилиб шуни таъкидлашимиз керакки, янги педагогик технологияларнинг асосий ғояси шахсни ривожлантириш орқали таълим мақсадларига эришиш бўлганлиги учун асосан интерфаол усуллардан фойдаланилди.

Тавсия этилган усуллар интерфаол усуллар бўлиб, уларнинг асосий мақсади талабалар танқидий тафаккурини ривожлантиришдир. Танқидий тафаккурини шакллантириш учун қуйидаги қоидаларга амал қилиш керак:

- Талабаларга фикр юритиш учун имконият бериш;
- турли-туман ғоя ва фикрларни қабул қилиш;
- талабаларнинг ўқув жараёнидаги фаоллигини таъминлаш;
- талабаларни кулгига қолмасликка ишонтириш керак;
- ҳар бир талабанинг танқидий фикр юритишга қодир эканлигига ўзларида ишонч ҳиссини уйғотиш;
- танқидий фикрлашнинг юзага келишини қадрлаш лозим.

MEHNATNI MUHOFAZA QILISH VA TEXNIKA XAVFSIZLIGI QISMI

Reja:

1. Mehat muhofazasining huquqiy me'yoriy asoslari
2. Qurilishdagi havfli va zararli ishlab chiqarish omillar
3. Qurilishni tashkil etish va ishlarni amalga oshirish
loyihasida mehnat muhofazasining yoritilishi
4. Qurilish montaj ishlarini amalga oshiruvchi ishchilar
uchun
mehnat muhofazasi buyicha yuriknoma

Mehnat muhofazasining huquqiy me'yoriy asoslari

Mehnat muhofazasida me'yoriy-huquqiy qonunlar sistemasi O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi 1995 yil 21 dekabrda 161-1 raqamli O'zbekiston Respublikasining mehnat kodeksini tasdiqladi.

Respublikamizda mehnatni muhofaza qilishning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida va O'zbekiston Respublikasining «Mehnatni muhofaza qilish tug'risida»gi Qonunda mustahkamlangan. Ushbu Qonun ishlab chiqarish usullari, mulk shaklidan qat'iy nazar korxonalarda mehnatni muhofaza qilishni tashkil etishning yagona tartibini belgilaydi hamda fuqarolarning sog'lig'i va mehnatining muhofaza qilinishini ta'minlashga qaratilgan.

Mehnatni muhofaza qilish — bu tegishli qonun va boshqa me'yoriy xujjatlar asosida amal qiluvchi insonning mehnat jarayonidagi havfsizligi, sihat-salomatligi va ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga qaratilgan ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiena va davolash-profilaktika tadbirlari hamda vositalari tizimidan iborat.

Ushbu Qonun mulk va xo'jalik yuritish shakli turlicha bo'lgan korxonalar, muassasalar, tashkilotlar bilan, shu jumladan ayrim yollovchilar bilan mehnat munosabatlarida turgan barcha ishlovchilar; kooperativlarning a'zolari, ishlab chiqarish amaliyotini o'tayotgan oliy O'quv yurtlari talabalari, o'rta maxsus o'quv yurtlari, hunar-texnika bilim yurtlari va umumiy ta'lim maktablarining o'quvchilari; korxonalarda ishlashga jalb etiladigan xarbiy xizmatchilar muqobil xizmatni o'tayotgan fuqarolar; sud xukmi bilan jazoni o'tayotgan shaxslar, ahloq tuzatish mehnat muassasalari korxonalarida yoki hukmlar ijrosini amalga oshiruvchi idoralar belgilaydigan korxonalarda ishlash davrida, shuningdek jamiyat va davlat manfaatlarini ko'zlab tashkil etiladigan boshqa turdagi mehnat faoliyati ishtirokchilariga nisbatan amal qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 36-42 moddalarida insonning iqtisodiy va ijtimoiy huquqlari, 45-50 moddalarida inson huquqlari erkinliklari kafolatlangan va burchlari belgilangan.

O'zbekiston Respublikasining mehnatni muhofaza qilish tug'risidagi qonunning 1-7-moddalarida umumiy qoidalar keltirilgan. Mehnatni muhofaza qilishni ta'minlash 15-moddalarda berilgan, 16-21-moddalarda ishlovchilarning mehnatni muhofaza qilishga doir huquqlarini ro'yobga chiqarishdagi kafolatlar ifodalangan. mehnatni muhofaza qilishga doir qonunlar va boshqa me'yoriy xujjatlarga rioya etilishi ustidan davlat va jamoatchilik nazorati 22-29-moddalarda berilgan.

Mehnat shartnomalari VI bobda keltirilgan, unda mehnat shartnomasining mazmuni, shakli, muddati 73-76-moddada, ishga qabul qilish va dastlabki sinov muddati 77-78-moddada, mehnat shartnomalarining bekorqilinishi 97-113-moddalarda o'z aksini topgan.

Mehnat nizolari XV bobda ko'rilgan bunda mehnat nizolari ko'rib chiqadigan organlar 260-moddada xalq sudlari 267-269-moddalarda mehnat nizosini hal qilishni so'rab murojat etish muddatlari 270-moddada mehnat shartnomasini g'ayri-qonuniy ravishda bekor qilishda yoki xodimni g'ayri-qonuniy ravishda boshqa ishga o'tkazishda aybdor bo'lgan mansabdor shaxs zimmasiga moddiy javobgarlik yuklash 274-moddada o'z aksini topgan.

Davlat ijtimoiy sug'urtasi masalalari XVI bobning 282-288-moddalarida keltirilgan (davlat ijtimoiy sug'urtasining barcha xodimlariga tatbiq etilishi 282-modda davlat ijtimoiy sug'urtasi hisobidan beriladigan ta'minot turlari 284-modda xomiladorlik va tug'ish nafaqasi 286-modda, dafn etish marosimi uchun beriladigan nafaqa 288-modda, qarilik bo'yicha pensiya 289-modda, nogironlik pensiyasi 290-modda, boquvchisini yo'qotganlik pensiyasi 291-modda).

Maxsus organlar mehnat tug'risidagi qonunlarning tug'ri amalga oshirilishini, ularni korxona ma'muriyati, ishchi va xizmatchilar

tomonidan buzilishi jinoyat deb hisoblanadi. Mehnatni muhofaza qilish qonunlarining asosiy nizomlarini rivojlantirish davlat qo'mitalari, vazirliklar va boshqarmalar tomonidan ishlab chiqariladi va tarmoq kasaba uyushmalari qo'mitalari bilan kelishilgan holda har xil me'yoriy (normativ) xujjatlar amalga tatbiq etiladi.

Mehnat muhofazasi bo'yicha me'yoriy (norma) va qoidalar ta'sir doirasiga qarab umumiy va tarmoqlarga bo'linadi. Hamma xalq xo'jaligi tarmoqlarida mehnatni muhofaza qilish talablari har xil bo'lib, umumlashtiruvchi umumiy me'yor va qoidalar mavjud. Bularga quyidagilar «Qurilish me'yorlari va qoidalari (KM va K) «Sanitariya me'yorlari (SM)» «Elektr jihozlarining tuzilish qoidalari (ETK), «Yuk ko'tarish kranlarining tuzilish va havfsiz ishlatish qoidalari» va boshqalar kiradi.

Tarmoq me'yorlari va qoidalari xalq xo'jaligining alohida tarmoqlariga ta'sir qiladi va mehnatni muhofaza qilish talablarini, faqatgina shu o'ziga xos tarmoq uchun o'z ichiga oladi. Bu qishloq xo'jaligida «Qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirish va yig'ib olgandan keyin ularga ishlov berish havfsizlik qoidalari», «Qishloq xo'jaligida pestisidlarni qo'llash, tashish va saqlash sanitariya qoidalari» va boshqalar.

Me'yoriy (normativ) xujjatlar sistemasida muhim o'rinni mehnat muhofazasi bo'yicha qo'llanmalar egallagan, ular alohida kasblar va ish turlari bo'yicha tuzilgan. Ular quyidagilarga bo'linadi: namunaviy, ilmiy-tekshirish, loyiha-konstruktorlik, texnologik va boshqa institutlar va tashkilotlar, shuningdek korxonalar o'ziga tegishli vazirliklar topshirigiga asosan, ishchilar uchun qo'llanmalar, har bir sex, uchastka, bo'lim, fermer xo'jaligi rahbarlari tomonidan ishchilar uchun ishlab chiqarilgan qo'llanmalar har bir korxona va bo'limlarni alohida o'ziga xosligini hisobga oladi. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha eng muhim me'yoriy xujjatlardan biri standartlar sistemasidir.

Qurilishdagi havfli va zararli ishlab chiqarish omillar

ГОСТ 12.0.003-74 ga asosan havfli va zararli omillar o'z ta'siriga qarab quyidagilarga bo'linadi: fizikaviy, kimyoviy, biologik va psixofiziologik.

FIZIKAVIY OMILLARGA mashina va mexanizmlarning xarakatlanayotgan, aylanayotgan yoki siljiyotgan qismlarini, mexanizm bilan ko'tarilayotgan yukni, qattiq shovqin va titrashlarni, havoniig harorati va namligining yuqori yoki pastligini, ish joyining ortiqcha yoki kam yoritilganligini va boshqalarni kiritish mumkin.

KIMYOVIY OMILLARGA pestisidlar, neft mahsulotlari, mineral o'g'itlar, asetilen ishlab chiqarishda foydalaniladigan boshqa gazlarning ta'siri kiradi.

BIOLOGIK OMILLARGA mikroorganizmlar — xayvonlar, yuqumli kasallik viruslari, bakteriyalar va ularning ajratgan mahsulotlari, shuningdek zaharli o'simliklar kiradi.

PSIXO-FIZIOLOGIK OMILGA - jismoniy zo'riqishlar ya'ni (jismoniy kuch sarflab bajariladigan ishlar) va asabiy psixik zo'riqishlarni mehnatning bir xilligidan zerikarliligi, aqliy zo'riqish va boshqalarni kiritish mumkin.

GOST 12.1.007.76 ga asosan zararli moddalarning organizmga ta'sir qilish darajasiga qarab 4 ta havfli sinfga bo'linadi:

1) o'ta havfli moddalar; 2) yuqori havfli moddalar; 3) o'rtacha havfli moddalar va 4) kam havfli moddalar.

Moddalarning havfli va zararli sinfi quyidagi 1-jadvada keltirilgan:
Ba'zi zararli moddalarning me'yoriy xavfliliginning ayrim kursatkichlari

1-jadval

Ko'rsatkichlar	Havfli sinfga qo'yiladigan me'yor			
	1-chi	2-chi	3-chi	4-chi
Ish joyidagi zararli moddalarning ruhsat etiladigan konsentrasiyasi (MRK)mg/m ³	0,1 dan kam	0,1-1,0	1-01-10,0	10,0 dan ko'p
Oshqozonga yuborilganda o'ldiradigan miqdor, mg/kg	15 dan kam	15-150	151-5000	5000 dan ko'p
Teriga tushganda o'ldiradigan miqdor, mg/kg	100 dan kam	100-500	501-2500	2500 dan kup
Atmosferadagi halok qiladigan o'rtacha «konsentrasiyasi, mg/kg	500 dan kam	500-500	5001-50000	50000 dan ko'p

Eslatma: Moddaning halok qiladigan o'rtacha miqdori bu oshqozonga bir marta kiritilganda tajriba xayvonlarining (kalamush, snchqonlarning) 50%ini o'ldiradigan konsentrasiyasi, 2-4 soat ingalyasiya ta'sir qilganda tajriba o'tkazilayotgan xayvonlarning 50%i o'lgan.

Qurilishni tashkil etish va ishlarni amalga oshirish loyihasida mehnat muhofazasining yoritilishi

Mehnat muhofazasiga o'qitishni tashkil qilish va bilimlarni tekshirish bo'yicha namunaviy nizomda (№ 272, 14.08.1996) barcha korxona, tashkilot, muassasa, institut, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari, birlashma, assosiasiya, korpoorasiya, xolding, tarmoq, vazirlik va boshqa mulk shaklidan qat'iy nazar malaka talablari hajmida ishchilar, rahbarlar, mutaxassislar, muhandis-texnik

xodimlar uchun mehnat muhofazasidan bilimlarni majburiy nazorat qilish tartibi belgilangan.

Korxonaga ishga kirayotgan har bir xodimga xavfli ish usullari bo'yicha yo'riqnoma, maxsus malaka olgandan va bilimi tekshirilgandan keyin mustaqil ishlashga ro'xsat beriladi. Bug' va issiqlik qozonlari, yuk ko'tarish kranlari, bosim ostida ishlovchi idishlar, elektr uskunalari, maxsus uskunalar kabi xavfli ishlarda ishlovchilarga maxsus o'quv kurslarini bitirganlari xaqida hujjatlari bo'lsagina ishlashga ruxsat beriladi. Xodimlarni xavfsiz ish usullariga o'qitish va ularni to'g'ri tashkil qilish bo'yicha umumiy rahbarlik hamda javobgarlik korxona rahbarlariga va boshqaruv tashkilotlariga yuklanadi. Sexlarda, bo'limlarda ishchilarni va ustalarni xavfsiz ish usullariga o'rgatish shu sex hamda bo'lim rahbarlariga, shuningdek, o'z vaqtida va sifatli o'qitishni nazorat qilish esa mehnat muhofazasi bo'limlari zimmasiga yuklatiladi.

Ishchilar bilan yo'riqnoma o'tkazish. Yo'riqnomalar ikki xil bo'ladi: kirish va ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnoma. O'z navbatida ish joyida o'tkaziladigan yo'riqnoma 3 xil bo'ladi: dastlabki, davriy va navbatdan tashqari.

Kirish yo'riqnomasi. Barcha ishga yangi kiruvchilar, boshqa korxonalardan xizmat safariga jo'natilganlar (ish malakasi va stajidan qat'iy nazar) amaliyot o'tayotganlar va shogirdlar kirish yo'riqnomasini o'tadilar. Uni korxonaning mehnat muhofazasi bo'yicha mas'ul xodimi yoki shu vazifa yuklatilgan boshqa rahbar xodim o'tkazadi. Agar ishga qabul qilish bevosita sexlarda amalga oshirilsa, kirish yo'riqnomasini shu sexning boshlig'i o'tkazishi kerak.

Shikastlanganlarga dastlabki yordam ko'rsatish, yong'in xavfsizligi va boshqa maxsus masalalar bo'yicha yo'riqnomalarni tegishli mutaxassislar olib boradilar.

Kirish yo'riqnomasi maxsus adabiyot, ko'rgazmali qurollar bilan jihozlangan mehnat muhofazasi xonasida, zamonaviy texnik vositalardan

foydalangan holda o'tkaziladi. Kirish yo'riqnomasi guruh bilan va yakka tartibda o'tkazilishi mumkin. Guruh bilan o'tkazilganda eshituvchilar soni 10 kishidan oshmasligi kerak.

Kirish yo'riqnomasi o'tkazilganligi haqida maxsus jurnalga va ishchi qo'liga topshiriladigan ishga kirish varaqasiga yozib qo'yiladi.

Kirish yo'riqnomasining dasturi:

1. korxona to'g'risida umumiy ma'lumot.

2. mehnat muhofazasi.

Havfsizlik standartlari tizimlari hakida umumiy ma'lumot. Ish vaqti va dam olish vaqti. Ayollar va balog'atga etmaganlar mehnatini muhofaza qilish. Davlat, tarmoq va jamoat nazorati. Korxonada baxtsiz hodisalarni taftish qilish. Ichki mehnat tartibi qoidalari.

3.Xavfsizlik texnikasi.

Ish joyini xavfsiz tashkil qilish va saqlashga qo'yiladigan talablar. Yuk ko'tarish va tashish mexanizmlari, ichki transport vositalaridan xavfsiz foydalanish qoidalari.

4.Ishlab chiqarish sanitariyasi.

Ishlab chiqarish muhitining asosiy sanitariya-gigienik omillari. Mehnat sharoitini yaxshilash bo'yicha asosiy tadbirlar (texnik va tashkiliy, sanitariya-gigienik, davolash-profilaktik). Ish joylari havosini almashtirishning zarurati va tuzilishi. Yorug'likni to'g'ri tashkil qilish. Shovqinga qarshi tadbirlar.

5.Shaxsiy himoya vositalari, ulardan foydalanish me'yor va qoidalari. Himoya vositalariga qo'yiladigan talablar. Korjomalar maxsus poyafzallar. Qo'l, bosh, yuz, ko'z, nafas a'zolari, quloqni himoya qilish. Ogohlantiruvchi moslamalar.

6.Shaxsiy gigiena qoidalari. Sanitariya kiyimlari, poyafzallari va vositalariga qo'yiladigan talablar.

7.Korxonada yong'in xavfsizligiga qo'yiladigan talablar.

8.Mexanik jarohat olganda, kuyganda, kislota va ishqorlar bilan kuyganda zaharlanishda, elektr va ko'z jarohatlari olgandagi dastlabki yordam.

9.Xavfsizlik texnikasi yo'riqnomalari buzilganda qo'llanadigan javobgarlik.

**Qurilish montaj ishlarini amalga oshiruvchi ishchilar uchun
mehnat muhofazasi buyicha yuriknoma**

1.Umumiy koidalar: Yuqorida bajariladigan montaj ishlarni bajarishga 18 yoshdan katta bo'lgan, vrach ko'rigidan o'tgan ishchilarga ruxsat beriladi. Montajchilar oldindan tekshirilgan himoya belbog'lari, sirpanmaydigan oyoq kiyim va arqonlar bilan ta'minlangan bo'lishi kerak. Ko'tarish va montaj joylariga o'tish yo'laklari yopilgan va to'siqlar bilan o'ralgan bo'lishi kerak.

2.Ishni boshlashdan oldin amal qilish kerak bulgan koidalar: Montaj ishlarini boshlashdan oldin va ishlar bajarilayotgan payitda to'siqlar bilan o'ralgan yo'laklarni qurilish ustasi ko'zdan kechirish kerak.

Ishdan chiqqan himoya belbog'lar, stroplar va ishsiz holatga kelgan asboblardan ishlash taqiqlanadi.

Montaj uchun kerak bo'lgan katta o'lchamdagi bloklar ish joyidan 30sm balandlikda oldindan o'rnatilgan bo'lishi kerak. Bunday holda blok montajchi tomonidan oldindan belgilangan joyga o'rnatiladi. Montaj qilinayotgan blok ustida ishchilar bo'lmasligi kerak.

3.Ish paytida amal qilish kerak bulgan koidalar: Bloklar o'z navbatida devorlarga o'rnatilishi kerak katta bloklarni o'rnatish chog'ida pastki qavatlarida ishlar vaqtincha to'xtatilib turilishi kerak.

Yirik konstruksiyalarni montaj jarayonida yuk ko'taruvchi mexanizmlarning ta'sir chegarasida hech kim bo'lmasligi kerak.

2) Eng avvalo, yirik konstruksiyalarni tug'ri taxlash lozim va yuk ushlab turuvchi elementlar sozligini tekshirish kerak.

3) Montaj ishlariga 18 yoshdan kichik bo'lmagan vrach ko'rigidan o'tgan va montaj ishlari uchun ruxsatnomasi bor ishchilar qo'yiladi.

4) Montaj ishlarini bajarishdan avval yuk ko'taruvchi moslamalarni sozligini yana bir marta tekshirish kerak.

5) Tanaffuz chog'ida bloklarni ko'tarilgan holda tashlab ketish qat'ian man qilinadi.

6) Yuk ko'tarishdan avval petlyalar ko'taruvchi moslamalar va ularning sifati tekshiriladi, defektli konstruksiyalarni montaj qilish taqiqlanadi.

7) Yuklar bosib qolgan yoki muzlab qolgan konstruksiyalarni ko'tarish man qilinadi.

8) Ko'tarilgan yuklarni er sathidan 0,5m balandlikda gorizontal ko'chirishga ruxsat etiladi.

9) Yuklarni montajniklarni ish o'rnining tepasida tashish man etiladi.

10) Konstruksiyalarni o'rnatish joyiga binoni tashqi tarafidan olib kelish kerak.

11) Yig'iq konstruksiyalarni oldindan o'rnatiladigan joyiga 20-30sm qolganda qabul qilish maqsadga muvofiq.

12) Konstruksiyalarni qabul qilish chog'ida devor chetlari va qavat yopmalariga chetlarida turishga montajchilarga ruxsat etilmaydi.

13) Yig'iq konstruksiyalar yopmalar ustida qoldirish man etiladi.

14) Yig'iq konstruksiyalarni yuk tashuvchi mashinalardan tushirish chog'ida xaydovchi yuk kabinasini tark etish kerak.

4.Avariya xolatda amal kilish kerak bulgan qoidalar: G'isht terish ishlarida oldindan jarohatlarning asosiy sabablari texnologik kartani ketma-ketligini buzilganda ish joyiga etkazib beriladigan qurilish materiallarini notug'ri tashkillashtirishda xavozalarni o'rnatish chog'ida xatoliklarga yo'l qo'yilganda koziryoklarni notug'ri montaj qilganda, ishlarni notug'ri qabul qilishda yuqorida qurilish materiallarini tushib ketish hollari sabab bo'ladi. G'isht teruchiga g'ishtlarni bilan himoya tusiqlari o'rnatilgan holda etkazib berish maqsadga muvofiq.

5.Ishni tugatgandan keyin amal kilish kerak bulgan koidalar: Ish vakti tugandan keyin xar bir brigada yoki ishchi uziga tegishli bulgan joyni yigishtirib, asbob uskunalarni joy-joyiga kuygan xolatda ish joyini tark etish kerak. Uziga tegishli bulgan maxsus kiyimlarni almashtirish joyiga utadi va ish kiyimini toza kiyimga almashtirib oladi. Uzining ish vakti tugaganini brigadirga

aytib uz smenasini keyingi ishchiga topshiradi. Natijada ish shu tarika davom etadi,

Shovkin xakida tushincha.

Odam uchun yokimsiz xar kanday tovushlar shovkin deb ataladi. Jism bir-biriga urilishi, ishkalanishi va muvozanat xolatining buzilishi natijasida xosil bulgan xavoning elastik tebranishi xarakati kattik, suyuq va gazsimon muxitda tulkin xosil tarkaladi.

Gazsimon muxitda shovkin tezligi kuyidagicha aniklanadi:

$$C_{\text{газ}} = \sqrt{\mu P_{\text{ст}} / \rho}$$

bunda, μ

μ -gaz adiabata kursatkichi (xavo uchun $\mu=1$),

$P_{\text{ст}}$ -gazning bosimi;

ρ -gazning zichligi

Normal atmosfera sharoitida ($T=293^{\circ}\text{K}$ ba $P_{\text{ст}}=1034\text{GPa}$) tovush tezligi S xavoda 344m/s ga teng.

Sanoat korxonalarida, kurilishda xam shovkinni ulchashning dV birligi kabul kilingan. Tovush darajasi kuyidagicha aniklanadi.

$$L=10\lg \quad \text{dB}$$

Tovush bosimi buyicha esa $L=10\lg \quad \text{dB}$. Tovush darajasini intensivligi buyicha aniklash, asosan akustik xisoblash ishlarida kullaniladi.

Kurilish maydonida, yangi sanoat korxonalarini va sexlarni loyixalashda shu sanoat korxanasini va sexlarda kelib chikadigan shovkin bosim daraja-larini aniklash muxim vazifa xisoblanadi. Malumki shovkin chikaruvchi mashina va mexanizmlar binoning biror xonasida yoki ochik xavodagi ishlarda, axoli yashash joylariga shovkin tasirida kamaytirishga karatish-gan chora tadbirlar loyixalash davrida xisobga olinadi. Shovkinni xisoblash asosan kuyidagi vazifalarni uz ichiga oladi.

1)Malum nuktada shovkin chikarishi mumkin bulgan va shovkin tavsiflari anik bulgan shovkin manbaining shovkin bosim darajasi aniklash.

2)Shovkin kamaytirilishi bosim bulgan mikdori.

3) Shovkinni ruxsat etilgan mikdor darajasiga keltirish chora tadbirlari. Xisoblash nuktasi ochik maydonda yoki berk xonada joylashgan bulsa, bularning xar biri uchun xisoblash formulalari xar xil buladi.

Xisoblab topilgan shovkin darajalari kiymati yul kuyilishi mumkin bulgan kiymatlar bilan solishtiriladi va kamaytirilishi zarur bulgan bulsa uni mikdori aniklanadi.

$$\Delta L_{X-L-L_{qo'sh}}$$

Kurilish maydonida umumiy shovkin darajasi 110dB bulgan xizmat-chilar urtiradagan vagondan 10m uzaklikda joylashgan ekskavator 100dB bulgan 5m masofada kompressor ishlab turgan sharoit uchun xisob olindi. Bunda vagon ichida urnatilgan konditsioner shovkini 65dB. Vagon devori-ning shovkinni izolyatsiyalash kobilyati 10dB. Vagon ichidagi umumiy shovkin darajasi xisoblasak ruxsat etilgan shovkin darajasi 80dB.

$$L_k = 65 \text{ dB}$$

$$L_{\text{v}} = 110 \text{ dB}$$

$$L_{\text{kom}} = 110 \text{ dB}$$

$$\alpha = 10 \text{ dB}$$

$$R_{\text{v}} = 10$$

$$R_{\text{kon}} = 5 \text{ m}$$

$$L = 110 - 20 \lg \frac{10}{5} - 10 = 110 - 20 - 10 = 74 \text{ dB}$$

$$L_2 = 100 - 20 \lg \frac{5}{5} - 6 - 10 = 100 - 16 - 20 \lg 5 = 84 - 20 \lg 5 = 84 - 20 = (10 - 10) = 84 - 20(1 - 10) = 84 - 20 - 20 \lg 2 = 64 + 20 \lg 2$$

$$L_{\text{smp}} = 10 \lg(10 + 10 + 10)$$

$$L_{\text{sum}} = 10 \lg(10 + 10 + 10) = 60 + 10 \lg(10 + 10 + 10) = 60 + 10 \lg(10 + 10 + 10) = 60 + 10 \lg 101.533 = 60 + 10 \lg 10 = 60 + 10 * 1.553 = 75.53 \text{ dB}.$$

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston respublikasi Prezidentining Qarorlari.

Qurilish tashkilotlarini yanada rivojlantirish va ularning moddiy-texnika bazasini mustahkamlash chora-tadbirlari to'g'risida *(O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 11-son, 121-modda)*

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning "Zamonaviy uy-joy qurilishi – qishloq joylarini kompleks rivojlantirish va qiyofasini o'zgartirish hamda aholi hayotining sifatini yaxshilash omili" mavzusidagi xalqaro konferentsiyaning ochilish marosimidagi nutqi. 17.04.2013y.
3. O'zbekiston respublikasi Prezidentining Qarori «Cog'lom bola yili» davlat dasturi to'g'risida *(O'zbekiston respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2014 y., 9-son, 87-modda)/*
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 29.05.2012 yil №150 karori "Malakali pedagog kadrlar tayyorlash xamda urta maxsus, kasb-xunar ta'limi muassasalarini shunday kadrlar bilan ta'minlash tizimini yanada takomillashtirishga oid chora-tadbirlar tugrisida"gi karorining 7-bandi.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 06.05.2003 yil PF-3240-sonli Farmoni: "Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy yo'nalishlari to'g'risida".
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 16.02.2005 yil PK-10 son Qarori. "Uy-joy kurilishi va uy-joy bozorini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'grisida".
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 24.03.2005 yil PF-3586-son Farmoni: "Kurilish materiallari sanoatida iktisodiy isloxotlarni chukurlashtirish va tarmokni jadal rivojlantirish to'grisida".
8. «Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili» Davlat dasturi to'g'risida» O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2009 yil 26 yanvardagi PQ–1046-son qarori
9. Karimov I.A. Jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. Toshkent, "O'zbekiston", 2009. – 24 bet.

10. Asqarov B.A., Miraxmedov M., Bozorboev N. va boshqalar. Binokorlikdan ruscha-o'zbekcha atamalar lug'ati. Toshkent, Qomuslar bosh taxririya, 1994. –224 bet.
11. Spektor M.D. «Vybor optimal'nykh variantov organizatsii i tekhnologii stroitelstva», M., SI, 1990.
12. Tretyakov A.K., Rojnenko M.D. Armatura va beton ishlari. Toshkent, O'qituvchi, 1985. – 298 b.
13. Shtol T.M., Yevstratov G.I. Stroitelstvo zdaniy i sooruzheniy v usloviyax jarkogo klimata. M., V.sh. 1984. –349 str.
14. Stroitelnoe proizvodstvo. Entsiklopediya. M., SI, 1995. –464 str.
15. QMQ 3.01.01-97. Qurilish-montaj ishlari sifatiga umumiy talablar. T., 1997.
16. QMQ 3.03.01.-98. Yuk ko'taruvchi va to'suvchi konstruktsiyalar. T., 1998.
17. QMQ 3.04.02-97. Qurilish konstruktsiyalari va inshootlarini korroziyadan himoyalash. T., 1997.
18. QMQ 3.01.02-00. Qurilishda xavfsizlik texnikasi. T., 2000, -245 b.
19. QMQ 3.03.06-99. Qurilish qorishmalarini tayyorlash va qo'llash. T., 1999. –102 bet.
20. KMK 2.01.03-96 «Zilzilaviy hududlarda qurilish». Toshkent 1996 y.
21. QMQ 2.01.07-96 «Yuklar va ta'sirlar». Toshkent 1996 y.
22. QMQ 2.02.01-98 «Binolar va inshootlarning zaminlari». Toshkent 1999
23. QMQ 2.03.01–96 «Beton va temirbeton konstruktsiyalar». Toshkent, 2006
24. QMQ 2.03.05-97- «Po'lat konstruktsiyalar». Toshkent 1997 y.
25. QMQ 2.03.10-95 «Tomlar va tomqoplamalar». Toshkent 1995 y.
26. QMQ 2.03.11-96 «Qurilish konstruktsiyalarini korroziyadan himoya qilish». Toshkent, 2006 y.
28. ShNK 2.08.01-05 «Turar-joy binolari». Toshkent 2006 y.
29. KMK 2.03.13-97 «Pollar».

- 30.ShNQ 3.01.01-03 “Qurilish ishlab chiqarishini tashkil qilish”.T., 2004 y.
- 31.QMQ 3.01.02-00 “Qurilishda havfsizlik texnikasi”. Toshkent 2006 y.
- 32.QMQ 3.01.05- 99 “Ishlarni bajarish va qabul qilish qoidalari.
- 33.Xududlarni obodonlashtirish”. Toshkent, 1999 y.
- 34.QMQ3.02.01-97 “Yer inshootlari va poydevorlari”. Toshkent, 1997 y.
- 35.QMQ 3.03.01 – 98 «Yuk ko‘taruvchi va to‘sib turuvchi konstruktsiyalar».
- 36.QMQ 3.03.02–98 «Metall konstruktsiyalar».
- 37.Shereshevskiy I.A «Konstruktirovanie promishlennix zdani i soorujeniy»
- 38.Y.A Novikov, V,S Biryukov “Vibor konstruktix elementov”
- 39.“Arxitektura” Grajdanskix i promishlennix zdaniya V-tom. Shubina L.F
1986g
- 40.K.A.Saydullaev, K.K.Shukurova “”
- 41.Belenya Ye.I. Metallicheskie konstruksii. Moskva, Stroyizdat, 1985g.
- 42.Melnikov N.P. Metallicheskie konstruksii. Moskva, Stroyizdat, 1983 g.
- 43.Xolmurodov R.I., Asliev S.A. Metall qurilmalari. Toshkent, “O‘qituvchi”
1994y.
44. Saydullaev Q.A.,Ganieva K.Q. “Po‘lat qurilmalari”. O‘quv qo‘llanma.
Toshkent 2002y.
45. Saydullaev Q.A.,Ganieva K.Q. “Maxsus metall konstruktsiyalari”. O‘quv
qo‘llanma. Toshkent 2004y.
46. I.I.Nikolaev « Proetirovanie jelezobetonnyx konstruksiy zdaniy dlya
stroitelstva v seysmicheskix rayonax», T., «O‘qituvchi», 1991g
- 47.I.A.Kolesnikov «Oxrana truda v stroitelstve». M.,1981g.
48. Spravochnik «Texnika bezopasnosti v selskom stroitelstve». K.,1981g.